

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya

2025-yil uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchilar
- II. O'zbekiston Respublikasida pensiya oluvchilar
- III. O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar
- IV. Ijtimoiy himoya ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. O'zbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchilar

Nafaqa – qonunchilik hujjatlariga muvofiq nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga, o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakilga, bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalarga, qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslarga tegishli ravishda nafaqa yoshiga to'lishi, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchilar soni ¹⁾

(tegishli yil uchun, ming kishi (oila))



2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchilar umumiy sonining izchil o'sishi kuzatildi. 2025-yilda ularning umumiy soni **5 146,9 mingtani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **201,6 mingtaga**, yoki **4,1 % ga** oshdi.

¹⁾ Pensiya va nafaqa oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli to'lovlarni o'layotgan shaxslar sonini aks ettiradi, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya va nafaqalar bundan mustasno bo'lib, ular bo'yicha alohida shaxslar emas, balki oilalar soni hisobga olinadi.

Mazkur toifaning asosiy qismini pensiya oluvchilar tashkil etdi. 2025-yilda ularning soni **4 433,0 mingtaga** yetdi va 2024-yilga nisbatan **186,6 mingtaga**, yoki **4,4 % ga** oshdi. Shu bilan birga, nafaqa oluvchilar soni **713,9 mingtani** tashkil etdi. 2024-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich **15,0 mingtaga**, yoki **2,1 % ga** ko'paydi.

Pensiya va nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025-yil uchun, ming kishi (oil))

	Jami	jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da	ulardan:	
			pensiya oluvchilar	nafaqa oluvchilar
O'zbekiston Respublikasi	5 146,9	100	4 433,0	713,9
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	276,5	5,4	234,6	41,9
Andijon viloyati	478,5	9,3	411,6	66,9
Buxoro viloyati	311,0	6,0	281,3	29,7
Jizzax viloyati	186,2	3,6	151,2	35,0
Qashqadaryo viloyati	479,7	9,3	398,1	81,6
Navoiy viloyati	175,8	3,4	151,8	24,0
Namangan viloyati	408,8	8,0	344,7	64,1
Samarqand viloyati	553,2	10,8	469,5	83,7
Surxondaryo viloyati	365,9	7,1	297,4	68,5
Sirdaryo viloyati	135,5	2,6	114,1	21,4
Toshkent viloyati	462,4	9,0	409,9	52,5
Farg'ona viloyati	583,0	11,3	518,0	65,0
Xorazm viloyati	285,7	5,6	243,5	42,2
Toshkent shahri	444,7	8,6	407,3	37,4

2025-yilda pensiya va nafaqa oluvchilarning eng yuqori umumiy soni Farg'ona (**583,0 ming**), Samarqand (**553,2 ming**) va Qashqadaryo (**479,7 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**135,5 ming**), Navoiy (**175,8 ming**) va Jizzax (**186,2 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Pensiya oluvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (**518,0 ming**), Samarqand (**469,5 ming**) va Andijon (**411,6 ming**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**114,1 ming**), Jizzax (**151,2 ming**) va Navoiy (**151,8 ming**) viloyatlarida qayd etildi.

Nafaqa oluvchilar orasida eng yuqori son Samarqand (**83,7 ming**), Qashqadaryo (**81,6 ming**) va Surxondaryo (**68,5 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**21,4 ming**), Navoiy (**24,0 ming**) va Buxoro (**29,7 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Pensiya va nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi](#)

[10 000 aholiga nisbatan pensiya va nafaqa oluvchilar soni](#)

[Pensiya va nafaqa oluvchilar sonining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foizda](#)


II. O'zbekiston Respublikasida pensiya oluvchilar

Pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi.

Pensiya oluvchilar – qonunchilikka muvofiq muntazam ravishda pullik to'lov (pensiya)larni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar toifasidir. Ushbu to'lovlar pensiya yoshiga yetishi, nogironligi, boquvchisini yo'qotganligi yoki ko'p yillik xizmatiga ko'ra ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sifatida taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya oluvchilar soni ¹⁾

(tegishli yil uchun, ming kishi (oilalari))



O'zbekiston Respublikasida pensiya oluvchilarning asosiy qismini yoshga doir, jumladan, ko'p yillik xizmati uchun pensiya oluvchi shaxslar tashkil etdi. 2025-yilda ularning soni **3 667,4 ming nafarga** yetdi va 2024-yilga nisbatan **151,3 ming nafarga**, yoki **4,3 % ga** oshdi.

Shu bilan birga, 2025-yilda pensiya oluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar soni **493,9 ming nafarni** tashkil etdi. 2024-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich **22,8 ming nafarga**, yoki **4,8 % ga** oshdi.

Bundan tashqari, 2025-yilda boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchi oilalar soni **271,7 ming oilani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **12,5 ming oilaga**, yoki **4,8 % ga** ko'paydi.

¹⁾ Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar alohida shaxslar sonini emas, balki oilalar sonini aks ettiradi.

Pensiya oluvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025-yil uchun, ming kishi (oilalari))

	Jami	ulardan:		
		yoshga doir, jumladan, ko'p yillik xizmati uchun pensiya oluvchi shaxslar	pensiya oluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar	boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchi oilalar
O'zbekiston Respublikasi	4 433,0	3 667,4	493,9	271,7
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	234,6	180,7	36,4	17,5
Andijon viloyati	411,6	346,2	40,8	24,6
Buxoro viloyati	281,3	230,6	37,0	13,7
Jizzax viloyati	151,2	118,7	18,5	14,0
Qashqadaryo viloyati	398,1	323,2	48,5	26,4
Navoiy viloyati	151,8	114,9	27,2	9,7
Namangan viloyati	344,7	280,9	39,6	24,2
Samarqand viloyati	469,5	396,8	45,0	27,7
Surxondaryo viloyati	297,4	240,2	35,8	21,4
Sirdaryo viloyati	114,1	85,7	21,1	7,3
Toshkent viloyati	409,9	343,9	35,9	30,1
Farg'ona viloyati	518,0	451,7	44,0	22,3
Xorazm viloyati	243,5	200,3	29,4	13,8
Toshkent shahri	407,3	353,6	34,7	19,0

Yoshga doir, shu jumladan uzoq yillik xizmat uchun pensiya oluvchi shaxslar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (**451,7 ming**), Samarqand (**396,8 ming**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**353,6 ming**) kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**85,7 ming**), Navoiy (**114,9 ming**) va Jizzax (**118,7 ming**) viloyatlarida qayd etildi.

Pensiya oluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar orasida eng yuqori son Qashqadaryo (**48,5 ming**), Samarqand (**45,0 ming**) va Farg'ona (**44,0 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax (**18,5 ming**), Sirdaryo (**21,1 ming**) va Navoiy (**27,2 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchi oilalar sonining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent (**30,1 ming**), Samarqand (**27,7 ming**) va Qashqadaryo (**26,4 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**7,3 ming**), Navoiy (**9,7 ming**) va Buxoro (**13,7 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yoshga doir pensiyalarning eng kam miqdori](#)

[Yoshga doir pensiyalar eng kam miqdorining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foizda](#)

[Pensiyalarning o'rtacha miqdori](#)

[Pensiyalar o'rtacha miqdorining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foizda](#)


III. O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar

Nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs.


Nogironligi bo'lgan bolalar (bola) – barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni

(tegishli yil uchun, ming kishi)



Yillar	2021	2022	2023	2024	2025
ayollar	346,5	392,9	420,1	474,5	481,1
erkaklar	450,8	503,5	521,8	546,3	582,0
jami	797,3	896,4	941,9	1 020,8	1 063,1



Yillar	2021	2022	2023	2024	2025
nogironligi bo'lgan bolalar	125,0	159,5	161,9	173,3	170,4
I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar	75,1	85,0	87,3	94,2	97,3
II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar	536,4	589,0	631,5	688,1	712,6
III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar	60,8	62,9	61,2	65,2	82,8

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar umumiy sonining izchil o'sishi kuzatildi. 2025-yilda nogironligi bo'lgan shaxslar soni **1 063,1 ming nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **42,3 ming nafarga**, yoki **4,1 % ga** oshdi.

Gender kesimida 2025-yilda nogironligi bo'lgan ayollar soni **481,1 ming nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **6,6 ming nafarga**, yoki **1,4 % ga** oshdi, erkaklar soni esa **582,0 ming nafarni** tashkil etib, **35,7 ming nafarga**, yoki **6,5 % ga** ko'paydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar tarkibida ayollar ulushi **45,3 % ni**, erkaklar ulushi esa **54,7 % ni** tashkil etdi.

2025-yilda nogironligi bo'lgan bolalar soni **170,4 ming nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **2,9 ming nafarga**, yoki **1,7 % ga kamaydi**.

Nogironlik guruhlari bo'yicha 2025-yilda I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni **97,3 ming nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **3,1 ming nafarga**, yoki **3,3 % ga oshdi**. II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni **712,6 ming nafarni** tashkil etib, **24,5 ming nafarga**, yoki **3,6 % ga ko'paydi**. III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni **82,8 ming nafarni** tashkil etib, **17,6 ming nafarga**, yoki **27,0 % ga oshdi**.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025-yil uchun, ming kishi)

	Jami	ulardan:				jumladan, jins bo'yicha:	
		bolalar	I guruh	II guruh	III guruh	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Respublikasi	1 063,1	170,4	97,3	712,6	82,8	481,1	582,0
<i>hududlar:</i>							
Qoraqalpog'iston Resp.	69,8	10,5	7,5	49,0	2,8	31,1	38,7
Andijon viloyati	90,3	15,6	8,4	57,9	8,4	41,4	48,9
Buxoro viloyati	63,7	6,6	5,6	47,6	3,9	28,9	34,8
Jizzax viloyati	45,6	8,7	3,9	29,4	3,6	20,6	25,0
Qashqadaryo viloyati	113,4	20,3	9,0	77,4	6,7	51,9	61,5
Navoiy viloyati	49,3	7,1	4,5	34,1	3,6	23,2	26,1
Namangan viloyati	85,6	12,9	6,6	59,2	6,9	39,9	45,7
Samarqand viloyati	111,1	20,1	11,9	70,0	9,1	50,2	60,9
Surxondaryo viloyati	89,3	16,6	8,2	58,4	6,1	40,4	48,9
Sirdaryo viloyati	39,7	6,1	2,6	29,0	2,0	18,3	21,4
Toshkent viloyati	76,8	11,1	7,0	49,3	9,4	33,3	43,5
Farg'ona viloyati	95,7	15,1	8,9	62,0	9,7	42,1	53,6
Xorazm viloyati	64,2	10,4	7,6	43,4	2,8	29,7	34,5
Toshkent shahri	68,6	9,3	5,6	45,9	7,8	30,1	38,5


2025-yilda nogironligi bo'lgan shaxslarning eng yuqori soni Qashqadaryo (**113,4 ming**), Samarqand (**111,1 ming**) va Farg'ona (**95,7 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**39,7 ming**), Jizzax (**45,6 ming**) va Navoiy (**49,3 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Gender kesimida barcha hududlarda nogironligi bo'lgan shaxslar orasida erkaklar ulushi ayollar ulushidan yuqori bo'ldi. Ayollarning eng yuqori ulushi Navoiy (**47,1 %**), Namangan (**46,6 %**) va Xorazm (**46,3 %**) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, erkaklarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyati (**56,6 %**), Toshkent shahri (**56,1 %**) va Farg'ona viloyatida (**56,0 %**) qayd etildi.

Nogironligi bo'lgan bolalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo (**20,3 ming**), Samarqand (**20,1 ming**) va Surxondaryo (**16,6 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**6,1 ming**), Buxoro (**6,6 ming**) va Navoiy (**7,1 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar orasida eng yuqori son Samarqand (**11,9 ming**), Qashqadaryo (**9,0 ming**) va Farg'ona (**8,9 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**2,6 ming**), Jizzax (**3,9 ming**) va Navoiy (**4,5 ming**) viloyatlarida kuzatildi. II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo (**77,4 ming**), Samarqand (**70,0 ming**) va Farg'ona (**62,0 ming**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**29,0 ming**), Jizzax (**29,4 ming**) va Navoiy (**34,1 ming**) viloyatlarida qayd etildi. III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (**9,7 ming**), Toshkent (**9,4 ming**) va Samarqand (**9,1 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati (**2,0 ming**), shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida (**har birida 2,8 mingdan**) kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasida birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025 yilda O'zbekiston Respublikasida birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni **116,4 ming nafarni** tashkil etib, 2024 yilga nisbatan **18,7 ming nafarga**, yoki **13,8 % ga** kamaydi.

Gender kesimida 2025 yilda birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan ayollar soni **54,3 ming nafarni** tashkil etib, 2024 yilga nisbatan **8,9 ming nafarga**, yoki **14,1 % ga** kamaydi, erkaklar soni esa **62,1 ming nafarni** tashkil etib, **9,8 ming nafarga**, yoki **13,6 % ga** pasaydi. Birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar tarkibida ayollar ulushi **46,6 % ni**, erkaklar ulushi esa **53,4 % ni** tashkil etdi.

2025 yilda birinchi marta nogironligi bo'lgan bola deb topilganlar soni **25,0 ming nafarni** tashkil etib, 2024 yilga nisbatan **4,3 ming nafarga**, yoki **14,7 % ga** kamaydi.

Nogironlik guruhлари bo'yicha 2025 yilda birinchi marta I guruh nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni **10,0 ming nafarni** tashkil etib, 2024 yilga nisbatan **2,8 ming nafarga**, yoki **21,9 % ga** pasaydi. Birinchi marta II guruh nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni **75,0 ming nafarni** tashkil etib, **11,8 ming nafarga**, yoki **13,6 % ga** kamaydi. Birinchi marta III guruh nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni **6,4 ming nafarni** tashkil etib, **0,2 ming nafarga**, yoki **3,2 % ga** oshdi.

**Birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun, ming kishi)

	Jami	ulardan:				jumladan, jins bo'yicha:	
		bolalar	I guruh	II guruh	III guruh	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Respublikasi	116,4	25,0	10,0	75,0	6,4	54,3	62,1
<i>hududlar:</i>							
Qoraqalpog'iston Resp.	5,7	1,3	0,7	3,5	0,2	2,6	3,1
Andijon viloyati	9,8	2,0	0,9	6,3	0,6	4,6	5,2
Buxoro viloyati	5,0	0,8	0,4	3,6	0,2	2,3	2,7
Jizzax viloyati	5,2	1,3	0,3	3,1	0,5	2,3	2,9
Qashqadaryo viloyati	12,2	2,7	0,7	8,4	0,4	5,9	6,3
Navoiy viloyati	5,3	1,0	0,4	3,4	0,5	2,6	2,7
Namangan viloyati	8,6	1,7	0,6	5,8	0,5	4,2	4,4
Samarqand viloyati	10,5	2,7	0,9	6,3	0,6	4,7	5,8
Surxondaryo viloyati	9,3	2,6	0,6	5,5	0,6	4,5	4,8
Sirdaryo viloyati	4,2	0,9	0,3	2,7	0,3	2,0	2,2
Toshkent viloyati	7,5	1,5	0,7	4,6	0,7	3,3	4,2
Farg'ona viloyati	8,1	1,9	0,6	5,0	0,6	3,7	4,4
Xorazm viloyati	6,9	1,3	0,8	4,6	0,2	3,5	3,4
Toshkent shahri	18,1	3,3	2,1	12,2	0,5	8,1	10,0

2025-yilda birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlarning eng yuqori soni Toshkent shahri (**18,1 ming**), Qashqadaryo (**12,2 ming**) va Samarqand (**10,5 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**4,2 ming**), Buxoro (**5,0 ming**) va Jizzax (**5,2 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar orasida erkaklar ulushi ayollar ulushidan yuqori bo'ldi. Ayollarning eng yuqori ulushi Xorazm (**50,7 %**), Navoiy (**49,1 %**) va Namangan (**48,8 %**) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, erkaklarning eng yuqori ulushi Toshkent (**56,0 %**) va Jizzax (**55,8 %**) viloyatlari, shuningdek, Samarqand viloyati va Toshkent shahrida (**har birida 55,2 %**) qayd etildi.

Birinchi marta nogironligi bo'lgan bola deb topilganlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**3,3 ming**), shuningdek, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida (**har birida 2,7 mingdan**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Buxoro (**0,8 ming**), Sirdaryo (**0,9 ming**) va Navoiy (**1,0 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Birinchi marta I guruh nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar orasida eng yuqori son Toshkent shahri (**2,1 ming**), shuningdek, Andijon va Samarqand viloyatlarida (**har birida 0,9 mingdan**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax va Sirdaryo viloyatlari (**har birida 0,3 mingdan**), shuningdek, Buxoro va Navoiy viloyatlarida (**har birida 0,4 mingdan**) kuzatildi. II guruh nogironligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**12,2 ming**), Qashqadaryo (**8,4 ming**), Andijon va Samarqand (**har birida 6,3 mingdan**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**2,7 ming**), Jizzax (**3,1 ming**) va Navoiy (**3,4 ming**) viloyatlarida kuzatildi. III guruh nogironligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent viloyati (**0,7 ming**), shuningdek, Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida (**har birida 0,6 mingdan**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlarida (**har birida 0,2 mingdan**) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganlar soni \(jami\)](#)

[Birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan ayollar soni](#)

[Birinchi marta nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan erkaklar soni](#)

[Birinchi marta nogironligi bo'lgan bola deb topilgan qiz bolalar soni](#)

[Birinchi marta nogironligi bo'lgan bola deb topilgan o'g'il bolalar soni](#)

IV. Ijtimoiy himoya ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Ijtimoiy himoya – aholining ijtimoiy va moddiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuidir. U yoshi, salomatlik holati, ijtimoiy mavqei yoki yashash uchun zarur mablag'lar bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi sababli yordamga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlashni qamrab oladi. Uning **asosiy maqsadi** aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy tafovutlarni qisqartirish va munosib turmush darajasini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobotlar va vakolatli davlat organlarining ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Jamlangan ma'lumotlar pensiya ta'minoti tizimi, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va nogironligi bo'lgan shaxslar hisobini yuritish holati hamda rivojlanishini tavsiflash uchun foydalaniladi.

Pensiya oluvchilar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar **1 pensiya** "Pensionerlar soni va ularga tayinlangan pensiyalar to'g'risida"gi yillik statistika hisoboti shakli ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Mazkur hisobotni Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi hamda Oliy sud taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar asosida pensiya oluvchilar soni, pensionerlarning pensiya turlari bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek, ularga tayinlangan pensiyalar to'g'risidagi ko'rsatkichlar shakllantiriladi.

Nafaqa oluvchilar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etiladigan **1 pensiya** yillik statistik hisobotining nafaqalarga oid bo'limi asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot nafaqa oluvchilar soni va ularga tayinlangan nafaqalar, shu jumladan oluvchilarning alohida toifalari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar va 18 yoshgacha bo'lgan OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar; nogironligi bo'lgan shaxslarning boshqa toifalari; 60 yoshga to'lgan ayollar va 65 yoshga to'lgan erkaklar; bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor 55 yoshga to'lgan onalar; shuningdek, boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchilar.

Nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironlik sabablari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etiladigan **1 nogironlik** "Nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironlik sabablari to'g'risida"gi yillik statistik hisoboti asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan bolalar soni, nogironlik guruhlari, nogironlik sabablari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanish, shuningdek, nogironlikni birlamchi belgilash va qayta tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Jamlangan statistik ma'lumotlardan ijtimoiy himoya tizimi holatini monitoring qilish, tahliliy materiallar tayyorlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijtimoiy sohadagi davlat dasturlarini axborot bilan ta'minlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni \(03.09.1993-yildagi 938-XII-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni \(15.10.2020-yildagi O'RO-641-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori \(13.10.2022-yildagi 592-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa va moddiy yordamlarni tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash va ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlat xizmati sifatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarori \(23.03.2023-yildagi 119-son\)](#)

[Ijtimoiy himoya statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha Uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

